

HAZM QILISH ORGANI KASALLIKLARINI TABIIY YO'L BILAN DAVOLASH**E.D.Raimberdiyev***Toshkent tibbiyot akademiyasi.tel(+99893)-666-19-16***F.D. Eshmatova***Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filliali. tel: (+99897)-152-79-02*

Kalit soʻzlar: *Anatsit gastrit, kolit, plantogulitsit preparati, laminariya, flora, funksional dispepsiya, xolesistit, pankreatit.*

Tadqiqotning dolzarbligi: Hazm tizimi kasalliklari, ichki kasalliklar orasida muhim oʻrin egallaydi. Bu holat mazkur kasalliklarning ayniqsa, yosh va mehnatga qobiliyatli aholi orasida keng tarqalishi bilan bogʻliq. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda odamlarning 50% dan ortig'i gastritning turli shakllaridan aziyat chekmoqda. Shuningdek, pankreatit, xolelitsit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning oshqozon yarasi, gastroezofagial reflyuks kasalligi, disbakterioz, oziq-ovqat zaharlanishi va boshqa kasalliklar kabi patologiya turlari keng tarqalgan. Bu kasalliklarni davolashda xalq tabobati usullari, xususan, dorivor o'simliklarning samaradorligini aniqlash.

Kirish: Qadim zamonlardan beri insoniyat o'simliklarni shifobaxsh vosita sifatida ishlatib keladi. Dorivor o'simliklar haqidagi malumotlar bizgacha yetib kelgan va hozirgacha foydalaniladi. O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan vositalarning 38-40 foizini o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Bazi og'ir kasalliklarni davolashda jumladan hazm qilish sistemasi kasalliklarini davolashda dorivor kasalliklarning ahamiyati kattadir. Yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning zahirasi har qanchalik ko'p bo'lmasin yildan-yilga ko'payib ketayotgan sayyorlash miqdorini sindirish hamda tabiiy sharoitda o'sadigan o'simliklarni saqlab qolish uchun ularni yig'ishni to'g'ri amalga oshirish kerak. Ilmiy asoslangan rejaga rioya qilingan holda olib borish kerak. Davlatimiz o'simliklar dunyosi yani turli o'simliklar florasiga boy. Ularning Ichida dorivorlari ham ko'p bo'lib har yili ming tonnalab dorivor o'simliklardan dori vositalari tayyorlanadi hamda kasallikni bartaraf qilish va davolashda foydalaniladi. O'zbekistonning issiq iqlimi, xalqimizning ovqatlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari ayrim hududlarda ekologik vaziyatning yomonlashishi tufayli respublikamiz aholisi orasida oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini ko'payishiga olib kelmoqda. Tibbiyot va farmatsiyada tarkibida kishi organizmiga ta'sir etuvchi kimyoviy moddasi bo'lgan dorivor o'simlik organlari uchun ishlatiladi. Dorivor mahsulot sifatida asosan o'simliklarni ildizi, bargi, po'stlog'i, guli va mevasi hamda boshqa qismlari foydalaniladi. Ularning kimyoviy birikmalari eng ko'p yig'iladigan davrda yig'ishtirib olish maqsadga muvofiqdir. Kimyoviy moddalar bir vaqtning hamma organlarda ko'p to'planmaydi va asosiysi ham shunda. Shuning uchun ularni turli vaqtda tayyorlashga to'g'ri keladi. Shuning uchun bu xastalikdan aholini xabardor qilish maqsadga muvofiq. Statistikalarning fikriga ko'ra butun dunyo aholisining

yarmida gastrit kuzatiladi. 2013-yilda 90 millionga yaqin yangi holatlar qayd etilgan. Kasallikka chalinish ehtimoli yosh o'tgan sari yuqorilab boradi. Hazm qilish kasalliklari orasida oshqozon yarasi kasalligi ko'proq uchraydi. Oshqozon yarasi ko'pincha 20-50 yoshli erkaklarda kuzatiladi. Kasallik bahor va kuz fasllarida tez-tez qaytalanishii bilan tavsiflanadi. Oshqozon yarasi sababi, odatda, odamning asab tizimini kuchlantiradigan stresslar bo'lib, u o'z navbatida oshqozon-ichak trakti mushaklarining va qon tomirlarining spazmlarini keltirib chiqaradi. Natijada oshqozonning qon bilan ta'minlanishi buziladi va oshqozon sharbati shilliq qavatga salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi, bu me'da yaralari paydo bo'lishiga olib keladi.

Asosiy qism: Hazm tizimi kasalliklari, ichki kasalliklar orasida muhim o'rin egallaydi. Bu holat mazkur kasalliklarning ayniqsa, yosh va mehnatga qobiliyatli aholi orasida keng tarqalishi bilan bog'liq. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarining asosiy turlari: qizilo'ngachning ahalaziyasi; surunkali gastrit; funktsional dispepsiya; oshqozon yarasi va eroziv lezyonlari; gepatit; jigar sirrozi; biliar disfunktsiya; xolangit kabi kasalliklar uchraydi. Bu kasalliklarni kelib chiqish sababi, noto'g'ri ovqatlanish; past sifatli mahsulotlarni iste'mol qilish; spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish; chekish; stress; anemiya; buyrak kasalligi; irsiyat va boshqa jarayonlar sabab bo'ladi. Har bir inson ovqat hazm qilish tizimi kasalligi bilan kasallanishi mumkin. Ushbu kasalliklar orasida etakchilar qizilo'ngach (qizilo'ngach), oshqozon (gastrit), jigar (gepatit), oshqozon osti bezi (pankreatit), o't pufagi (funktsional dispepsiya), ingichka, katta va to'g'ri ichakning yallig'lanishi (enterit, kolit va proktit). Kabi kasalliklar uchraydi.

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari, xususan, oshqozon, ingichka va yo'g'on ichaklar, oshqozon osti bezi, jigar va o't pufagi zamonaviy dunyoda, ayniqsa shahar aholisi orasida juda keng tarqalgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda odamlarning 50% dan ortig'i gastritning turli shakllaridan aziyat chekmoqda. Shuningdek, pankreatit, xoletsistit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichakning oshqozon yarasi, gastroezofagial reflyuks kasalligi, disbakterioz, oziq-ovqat zaharlanishi va boshqa kasalliklar kabi patologiya turlari keng tarqalgan. Inson yashashi va organizmning taraqqiy etishi uchun tabiat ne'matlari va oziq – ovqat maxsulotlaridan ma'lum miqdorda iste'mol qilib turadi. Tabiatdagi o'simliklar orasida hazm qilish organ kasalliklarini davolashda ham keng foydalaniladi, bulardan; zubtutum o'simligining dorivor preparatlari yallig'lanishga qarshi ya'ni barg damlamasidan (meda-ichak)kasalliklari surunkali gipoasitli gastirit normal va kam kislotali sharoitda esa meda o'n ikki barmoqli ichak yarasini (plantogulitsit preparati anatsit gastrit surunkali va tuzalishi qiyin bo'lgan kolit hamda yaralarni davolashda quritilmagan bargi va burga zubtutumining quritilmagan yerustki qismining shiralari birgalikda davolashda qo'llaniladi. Burga zubtutumining yakka holda ham yer ustki qismining shirasi anatsit gastirt va surunkali kolitni davolashda qo'llaniladi. Dengiz o'simliklaridan ham hazm qilish sistemasi kasallilarini davolashda keng qo'llaniladi. Jumladan laminariya va laminarit preparati yengil surgi dori sifatida surunkali qabziyatda meda ishini normallashtirish uchun foydalaniladi. Laminariya os'imligi Xitoy va Yaponiyada qadimdan parhez vosita sifatida qo'llanib kelingan. Bu

xastaliklarni davolashda yirik kukunidan 1-2 choy qoshig'ini suv bilan aralshtirib uxlashdan oldin ichish maqsadga bog'liqdir. Chakanda o'simligining bargining tarkibida oshlovchi va boshqa birikmalar borligi tufayli qizilo'ngach va meda shilliq qavatlari,meda yarasini davolashda foydalaniladi. Davolash uchun ishlatiladigan chakanda moyi siqib shirasi olingan mevadan (kunjara)dan kungaboqar moyidan ekstratsiya qilib olinadi. Tirnoqgulning gullari qiyg'os ochilgan vaqtda (savatchaga to'plangan tilsimon gullari gorizontal turgan vaqtda savatchalar bandsiz qirqib olinib soya yerda quritilgan qismidan turli yaralarni va boshqa kasalliklarni bartaraf qilishda shuningdek,kaliflon preparati,meda va o'n ikki barmoqli ichak yara kasalligida yara bitishini tezlatuvchi va yallig'lanishga qarshi dori sifatida hamda gastritni davolashda keng qo'llaniladi. Bulardan yana biri tubulg'ibarg bo'yimadaron o'simligi ham shu kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Tarkibida Kundalik turmushimizda odatga aylangan kashnich mevasidan ishtaha ochadigan,ovqat hazm qilishni yaxshilaydigan o't haydovchi vosita sifatida ham keng foydalaniladi. Jumladan qalampir yalpiz bargi preparatlari va efir moyidan tayyorlangan yalpiz va nastoykasi ko'ngil aynishiga va qayd qilishiga qarshi hamda ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashda qo'llaniladi. Moychechak o'simligi ichak yopishib qolganda va ich ketishiga qarshi foydalaniladi. Dorivor o'simlik sifatida daraxtsimon o'simliklardan ham foydalaniladi:bulardan qayin daraxtining kurtagi va bargining preparatlari dori sifatida ishlatiladi. Kurtak preparatlari esa o't haydovchi vosita sifatida(xolesistit va boshqa kasalliklarda foydalaniladi. Faollashtirilgan ko'miri-karbolin qorin dam bo'lganda hamda kolit meda shirasining kislotasi ko'paygan hollarda va zaharlar bilan zararlanganda ham ishlatiladi. Oshqozon yarasi eng keng tarqalgan ovqat hazm qilish kasalliklaridan biridir.Bulardan gastirit eng keng tarqalgan somatik kasallik. Bu ekzogen, endogen omillar yoki ularning kombinatsiyasi ta'sirida yuzaga keladigan yallig'lanish. Ushbu hodisalarning natijasi sekretsiya va vosita funktsiyalarining buzilishining turli xil variantlari paydo bo'lishi mumkin. Uzoq muddatli asabiy ovqatlanish bilan bog'liq odatlar oshqozon-ichak trakti kasalliklarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ratsionda kletchatkalar, barra sabzavotlarning yetishmasligi, fastfud va zararli ovqatlarni haddan ortiq darajada ko'p iste'mol qilish xavfning yanada oshishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ovqatlanmaslik va iste'molni oshirib yuborish ham ko'plab muammolarga olib keladi. Tez natija beradigan parhez, ochlik – bularning bari salomatlikka salbiy ta'sir qilib, kasallikning rivojlanishi yoki asoratlari kelib chiqishini jadallashtirishi mumkin.

Xulosa: Taqdqiqotlar va izlanishlar natijasi shuni ko'rsatdiki, Dorivor o'simliklarning ta'siri oshqozon ichak kasalliklarida yuqori samaradorlikka olib chiqadi. Xususan o'rab oluvchi , burushtiruvchi, kislotalikni kamaytiruvchi, antibakterial ta'sir qiluvchi ko'plab o'simliklarni o'rganib chiqdik va tadqiqotlar tahlillariga ko'ra 80-90% holatlarda bemorlarning umumiy ahvoli normollashganini ko'rishimiz mumkin. Dorivor o'simliklar yoki ularning yig'malarini qo'llashdan oldin loabarator tekshiruvlardan o'tkazish hamda ularning terapevtik dozasi ga amal qilgan holatda buyurishimiz zarur. Pereparatlarini tabiatdagi nativ holatini saqlashga , qadim

zamonlardan beri turli kasalliklarga malham bo'luvchi vositalarni tabiatdan topishga harakat qilganlar. Shuni ham aytish kerakki dastlab o'simliklarni shifobahshlik xususiyatlari tasodifan topilgan bo'lsa ham, keyinchalik qayta va qayta hayotiy sinovlardan o'tgach, xalq tabobatida qo'llanila boshlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farmagoknoziya X.H Xolmatov O'.A Ahmedovdan keyin M Nabiyev Hosiyatli ichimliklar va Sharbatlar
2. Fitoterapiya – M.Maxsumov, X.Aliyev,S.Saidov,Sh.Maxsumov
- 3.<https://studylib.ru/doc/6366644/ovqat-hazm-qilish-a-zolari--kasalliklari>
- 4.<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tibbiyot/ovqat-hazm-qilish-a-zolari-kasalliklari>.